


Hajmli applikatsiya. Loyiha. Vatanim bayrog'i



1-sentabrda mamlakatimiz Mustaqillik kunini nishonlaydi. Bu kunda davlat muassasalari va maydonlarda **O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i** tantanali ravishda ko'tariladi.



Loyihani boshlashdan oldin yurtimiz bayrog'i haqida nimalarni bilishingizni yodga oling.



“O'zbekiston bayrog'ini bilasizmi?” viktorinasi

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining ranglarini va ularning joylashish tartibini ayting.
2. Bayroqda nechta qizil chiziq tasvirlangan?
3. Yarimoy va 12 ta yulduz qayerda joylashgan?
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun, oy va yilni ayting.
5. Qaysi holatlarda Davlat bayrog'i ko'tariladi?
6. Nima uchun davlat ramzlarini aniq va bexato tasvirlash kerak?



Barchangiz birgalikda rangli qog'ozdan **O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'ini** yasang. Tayyor bayroqning uzunligi – **72 cm**.

Sizga kerak bo'ladi:

- uzunligi **80–85 cm** bo'lgan tayoqcha;
- uzunligi taxminan **90 cm** bo'lgan ip;
- **13 × 4 cm** o'lchamli moviy rangli tasmalar – 108 ta;
- **13 × 4 cm** o'lchamli oq rangli tasmalar – 126 ta;
- **13 × 4 cm** o'lchamli yashil rangli tasmalar – 108 ta;
- **13 × 4 cm** o'lchamli qizil rangli tasmalar – 36 ta;
- qalin oq qog'oz;
- qaychi, yelim-qalam;
- oddiy qalam.



Ishni bajarish bosqichlari

1

Rejani muhokama qiling va vazifalarni taqsimlang.1-guruh **moviy halqalarni** tayyorlaydi.2-guruh **oq halqalarni** tayyorlaydi.3-guruh **yashil halqalarni** tayyorlaydi.4-guruh **qizil halqalar**, yarimoy, 12 ta yulduz va ilgichlarni tayyorlaydi.

Avval detallarni joylashtiring va ularni O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i tasviri bilan solishtiring. Ularni tekshirib bo'lgandan so'ng, yelimlang.

2




Qog'oz tasmalardan halqalar yasab, ikki uchi bir-biriga yopishtiring.

3

Tepadan pastga qarab bitta zanjir yig'ing:


3 ta **moviy**,1 ta **qizil**,3 ta **oq**,1 ta **qizil** va3 ta **yashil** halqa.

4




Xuddi shu usulda **18 ta bir xil zanjir** tayyorlang.

5



Barcha zanjirlarni navbat bilan tayoqchaga kimgazing va ularni bir xil masofada joylashtiring.

6



Tayyor asosga yarimoy va 12 ta yulduzni yelimlang. Tayoqchaning chetlariga ipni mahkamlang.



Jamoaviy ish birgalikda harakat qilish, bir-biriga yordam berish va umumiy natija uchun mas'ul bo'lishni o'rgatadi.

